

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

“PEDAGOGIKA” FAKULTETI

«MAKTABGACHA TALIM» KAFEDRASI

«Maktabgacha talim» ta'lim yo'nalishi 3 “d” kurs talabasi
Abdikadirova Aygulning

«Pedagogika fanini o'qitish metodikasi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: **Muammoli ta'limda muammoli vaziyatlarni tashkil etish
texnologiyasi**

Qabul qildi:

G.Torebekova

Nukus-2014 yil

Muammoli ta`limda muammoli vaziyatlarni tashkil etish texnologiyasi

- I Kirish
- II Asosiy qism
 - II.1 Muammoli talimning nazariy asoslari
 - II.2 Muammoli talimning maqsad va vazifalari
 - II.3 Muammoli talim texnologiyasi vositalari
 - II.4 Muammoli dars strukturasi.
- Xulosa
- Foydalangan adabiyotlar

Kirish

Mustaqil Respublika sharoitida xalq talimini o'ziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmokda. Bu o'ziga xoslik avvalo talim - tarbiya mazmunini milliyalashtirish, yani uzimizning juda boy utmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z moxiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy, axlokiy mazmunga ega bulgan milliy urf – odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bulgan yosh avlodni o'qitish baxtiga muyassar buldik. Bu narsa xammamizning qalbimizda yuksak gurur xislarini tulqinlantiradi.

Eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bulmaydi. Shuning uchun fikrimizcha, biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirishimiz mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyaning uzi nima, unga qanday erishib buladi?

Yangi pedagogik texnologiya bu qandaydir mavxum, qul bilan tutib bulmaydigan faxm–farosat bilan amalga oshirib bulmaydigan narsa emas. Bu murakkab uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon o'qituvchining boskichma – boskich pedagogik maxorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik maxorat darajasiga kutarilishi kabi nixoyatda kiyin, mashakkatli mexnatning samarasi sifatida xar bir o'qituvchi erishishi mumkin bulgan maxorat chukkisidir.

Pedagog mexnatining xususiyatlari tabiatning eng buyuk inomi bulgan insonni o'qitish va tarbiyalash uchun muljallangan:

1. Pedagogning mexnat faoliyati o'sib kelayotgan yoshlarning insoniy xususiyatlarini shakllantirishdan iborat.
2. Pedagog faoliyatidagi mexnatning uziga xos xususiyati shundan iboratki, unda mexnat predmeti bulib xazrati inson xisoblanadi.
3. Pedagogik mexnat unga xar tomonlama tasir etuvchi omillarni boshkaruvchi shaxsga bulgan tasiridan iborat.

Bu mexnatda talabaga tasir etuvchi kurol bulib o'qituvchining shaxsi-uning bilimlari, maxorati, sezgirligi va erkinligidir. Pedagogik jarayonning maksadi, nafakat talabani tarbiyalash, ukitishni tashkil kilishdan iborat bulmay, uning ukitish uslublarini va ulardagi barcha munosabatlar tizimini aniklashdan iborat.

Pedagogik mehnatning buyuk xususiyati shundan iboratki, unda mehnat boshdan-oq insonlar orasidagi uzaro tasir jarayonidan iborat. Unda predmet inson, mehnat quroli inson, mehnat maxsuli ham inson yani pedagogik mehnatning maqsadi, masalasi, o'qitish va tarbiya uslublari shaxsiy munosabatlar shaklida amalga oshiriladi. Pedagogik mehnatning bu xususiyati odob, axloq, xulq kabi tomonlarning yuqoriligini taminlaydi.

Tadqiqot maqsadi: talim jaraënida muammoli talimning mazmuni va mohiyatini o`rganish va pedagogik omillarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari: Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o`rganish, tahlil qilish, umumlashtirish asosida hozirgi vaqtda tarbiyaning umumiy metodlar, mazmuni va mohiyatiga qo`yiladigan talablarning didaktik asoslarini aniqlash.

II.1 Muammoli talimning nazariy asoslari

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun manaviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va manaviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli talim texnologiyasi etakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli talim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehqtiyoj) hisobga olib tuzilgan talim va o'qitishning ilgari malum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli talim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va etiqodining shakllanishini taminlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli talim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi talim bo'lib qoladi.

Didaktikada muammoli o'qitish yangi yo'nalish sifatida XX asrning 70-80 yillarida yuzaga keldi.

A.M. Matoshkin, T.V. Kudryashv, M.I. Maxmutov, I.Ya. Lernerlar muammoli o'qitish qonuniyatlarini chuqur o'rgandilar.

Ananaviy didaktika butun etiborni o'qituvchi faoliyatiga qaratgan edi va talim jarayoni deganda asosan o'qitish jarayonini ko'zda tutgan edi. O'qitish jarayoni etarli o'rganilmas edi, ko'pincha o'quvchilarning reproduktiv faoliyati bayon qilinardi, xolos. Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil – o'quv – bilish faoliyatiga etiborni kuchaytirdi.

Muammoli talim nazariyasi o'quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi talimni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli talimning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli talimda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Malumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim kharsatikichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar talim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy manosida rivojlanuvchi talim deb hisoblash mumkin.

Rivojlanuvchi talim deb, yani umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday talimni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga tayaangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikirlash qobilyaati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish olib boradi. Bunda talim, fikrimizcha, muammoli talim hisoblanadi. Muammoli talim yo'li bilan faollashtirishning maqsadi favqulodda, betartib ravishda vujudga keladigan fikrlash operatsiyalariga o'rgatish emas, balki (o'quvchilarni tushunchalarning o'zlashtirish darajasini oshirish) nostereotip masalalarni hal qilish uchun aqliy harakat tizimiga o'rgatishdir. Bu faollik shundan iboratki, bunda o'quvchi faktik materiallarini tahlil qilib, qiyoslab, sintez qilib, umumlashtirib, konkretlashtirib, undan o'ziga yangi axborot oladi.

Boshqacha qilib aytganda, bu ilgari o'zlashtirilgan hamda avvalgi bilimni yangicha qo'llash yordamida bilimni kengaytirish chuqurlashtirish demakdir. Avvalgi bilimlarni yangicha qo'llashni kitob ham, o'qituvchi ham o'rgata olmaydi. Bu mavjud tegishli vaziyatda o'quvchi tomonidan izlanishi va topilishi lozim. O'quvchilar tomonidan ijodiy aqliy harakatlar tizimini asta-sekin o'rganilishi

ko'nikma va malakalarning yig'ilishiga, bundan harakatlar tajribasi esa aqliy faoliyat sifatining o'zgarishiga, odatda, ilmiy, tanqidiy, dialektik deb ataladigan maxsus tipdagi fikrlashni yaratishga olib keladi.

II.2 Muammoli talimning maqsad va vazifalari

Xozirgi ta'lim tizimida samarali o'kitish texnologiyalaridan biri – bu muammoli o'kitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadkikot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'kitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'kitishning mohiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish orkali yangi bilimlarni mustakil o'zlashtirishdan iborat.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofik tashkil etiladigan o'ziga xos o'kitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chikib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chikish zarur. Shunday kilib, o'kitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'sik» bilan boglangan akliy mashakkat xolati emas. U bilish maqsadlari maxsus takozo kilgan akliy taranglik xolatidir. Shunday kilib, muammoli vaziyat mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, xodisalar (kaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik kiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun xarakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashakkatini xal kilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chika olish xamma vakt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutkiy ifodasi va echimini anglash bilan boglangan.

Muammo uch tarkibiy kismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan kidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning

bajarilish usullari xamda natijasi xam noma`lum bo`ladi, lekin talabalar o`zlaridagi avval egallangan bilim va ko`nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo`lini izlashga tushadi.

Shunday kilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustakil xal kilinish usuli o`quv muammosi bo`la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa xam o`quv muammosi bo`la olmaydi.

O`quv muammosining muxim belgilari kuyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma`lumning ko`yilishi;

- talabalarda noma`lumni topish yo`lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan muayyan bilim zaxirasining bo`lishi.

O`quv muammosini echish jarayonida talabalar akliy faoliyatining muxim boskichi uning echilish usulini o`ylab topish yoki gipoteza ko`yish xamda gipotezani asoslashdir.


O`quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda xar bir savol uning xal kilinishida bir boskich bo`lib xizmat kiladi.

Muammoli o`qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo`lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirishdir.

O`qitish jarayoniga muammoli o`qitish texnologiyasini qo`llash uchun o`qituvchi quyidagi masalalarni hal qilish:

1. O`quv dasturi bo`yicha mavzularni muammoli dars shaklida o`tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo`yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik printsiplariga amal qilish;

3. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni taminlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash zarur.



Muammoli talim – bu o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqarvchi muayyan shaxsiy subektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

- 1) o'quvchilarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.
- 2) Insonning his-tuyg'usi va emotsiyasiga tasir etish, uning bilimini etiqodga aylantirish.




Muammoli o'kitish mashgulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muxim tomoni shundaki, bunda o'kituvchi uning xam ta'limiy, xam tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab kilinadi. O'kituvchi xech kachon talabalarga tayyor xakikatni (echimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashgulotlarda va xayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, vokea, vakt va xodisalarni ongida kayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra muammoli talimni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:

Muammoli talim darajalari	O'qituvchi va o'quvchi faoliyati
Mustaqil bo'lmagan (odatdagi) faollik darajasi	O'qituvchi tushuntirganini o'quvchi tomonidan idrok etilishi muammoli vaziyatlar sharoitida aqliy mehnat
Yarim mustaqil faollik darajasi	Ilgarigi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarining echish usullarini izlashda ishtirok etish
Mustaqil faollik darajasi	Reproduktiv – izlanish tipidagi ishlarni bajarish, bunda darslik matni bilan o'quvchining o'zi ishlaydi, ilgarigi bilimlarini yangi vaziyatda qo'llanadi, konstruktsiyaaydi, o'rtacha murakkablikdagi masalalarni echadi, o'qituvchining ko'magi bilan gipotezalarni isbotlaydi va h.k.
İjodiy faollik darajasi	İjodiy tasavvurni talab etuvchi, mantiqiy tahlil qilish va o'ylab topishni, o'quv muammolarini echishning yangi usullarini kashf etishni, mustaqil isbotlashni: mustaqil xulosa va umumlashmalar chiqarishni, kashfiyot va badiiy insholar yozishni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish

Muammoli talimni tadqiqot metodi bilan aynan bir narsa deb emas, balki o'quvchi tafakkuri va uning xotirasining rivojlanishini taminlaydigan, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishiga, ilmiy faktlarni jamlashga ko'maklashadigan hamda etiqodni tarkib toptiradigan talimning bir turi deb qarash lozim.

Muammoli talim hamma o'quvchilar bopmi? Amalda deyarli hamma uchun tushunarli. Biroq muammolilik saviyasi va mustaqil bilish darajasi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, ularning muammoli talim texnologiyasi bilan o'qitilganlik darajasiga qarab farqlanadi.



Muammoli talim – o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malkalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan talim jarayonini tashkil etish bo'lib, muammoli talimning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Talim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarda: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.


O'quvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va ulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

II.4 Muammoli dars strukturasi

Struktura – bu butun predmet, xodisa, jarayon tomonlari, qismlari, elementlarining mustahkam, nisbatan barqaror aloqasi (munosabati) va o'zaro hamkorligidir.

Zamonaviy muammoli dars strukturasi uning tipi va turidan qati nazar har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masalani ko'ramiz:

- 1) o'quvchilar oldingi bilimlari va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 2) yangi bilimlar va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 3) ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.




Didaktikada muammoli darslarni muammoli vaziyatlarning tipiga qarab xarakterlashga oid tadqiqotlar mavjud. Shu o'rinda G.V.Artyomova o'z izlanishlari asosida muammoli darslarni tashkil etishning bir necha variantlarini taklif etadi.

Bular: 1. Versiya xarakteridagi dars.


2. Qiyosiy-umumlashtirish xarakteridagi dars.

3. Manaviy-axloqiy muammoli dars.

Versiya xarakteridagi dars strukturasi



Qiyosiy-umumlashtirish xarakteridagi dars strukturasi



Darsning didaktika va mantiqiy-psixologik strukturasi o'qituvchiga nazariya sifatida, darsni tashkil qilishning umumiy qoidalarini tushuntirish sifatida beriladi. Metodik strukturani o'qituvchi o'zi o'quv materialining mazmuni, didaktik maqsadi va o'quvchilarning o'qishga bo'lgan tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tuzadi. Uning ijodi, sanati, uning takrorlanmas individualligi ana shunda.

Tankidiy fikrlashni o'stirishga xizmat kiladigan metodlar «Demokratik ta'lim uchun» konsortsiumi tomonidan amalga oshiriladigan «Tankidiy fikrlash uchun o'kish va yozish» loyixasi doirasida ishlab chikilgan.

Tankidiy fikrlash nima?

Fikrlash – o'kish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiklashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror xakikat to'grisidagi fikrlarni kamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashkarida xosil kilinadigan ko'nikma emas.

Tankidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik xayotning umumiy kontekstidan yiroklashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan xodisa xam emas.

Braun (19x9) ta'kidlaydiki, vazifa va real xayot maksadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda ko'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va mul'timedia madaniyati ta'limi soxasidagi tadkikotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadkikotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga xammualiflar, 19x5).

2. O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffakiyatlirok bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 19x9).

3. O'rganish va tankidiy fikrlash talabalarning konkret vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni ko'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan takdirda rivojlanadi (Resnik,19xu).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustaxkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan boglash imkoniyatini beradi (Ros,1990).

5. Tankidiy fikrlash va o'rganish goya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va kadrlagan vaktdagina amalga oshadi. Tankidiy fikrlash «yakkayu yagona to'g'ri javob»ni kabul kiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tankidiy fikrlashning rivojlanish muxitini yaratish. Tankidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan

va esdan chikarilgan vazifa xam emas. Shu bilan birga tankidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l xam yo'k.

Lekin tankidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman goya va fikrlarni kabul kilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- talabalarni kulgiga kolmaslikka ishontirish kerak;
- xar bir talabaning tankidiy fikr yuritishga kodir ekanligiga o'zlarida ishonch xissini uygotish;
- tankidiy fikrlashning yuzaga kelishini kadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri xamda goyalarining kadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z xukmlarini shakllantirishga xamda undan kaytishga tayyor turishi lozim.

Vakt. Tankidiy fikrlash vakt talab kiladi.

Pirson, Xansen, Gordon (19u9)lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod kilish go'yo avvalgi goya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jixatdan tadkik kilishga olib keladi. Shuning uchun xam:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tankidiy fikrlar almashish;
- o'z goyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan goyalar kiyofasida, kulay muxitda amalga oshira olish va o'z goyalarini to'la va anik ifdalay olish.

Izn. Tankidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'kul va noma'kul narsalarni aytish, ular xakida fikrlash, ijod kilish uchun ruxsat

olishlari lozim. Talabalar yo'l ko'yiladigan xolatlarni anglab olishgach, tankidiy taxlil kilishga faol kirishadilar.

Tankidiy taxlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda taxlil va xaddan oshish orasidagi fark aniklab berilishi lozim. Tankidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maksad bo'lgan va do'stona xamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va goyalar paydo bo'ladi.

Rang-barang fikr va goyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi xakidagi tasavvur bartaraf kilingan chogdagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda kilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek ko'yiladi. Fakat birgina javob mavjud bo'lgan takdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tankidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita boglangan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'kituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'kituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib kolgan. O'kuv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'kishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tankidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z goyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoklashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (19u5) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida katnashganligidan katta baxra oladilar va o'zlarida chukur konikish xissini sezadilar.

Tavakkalchilik Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida ko'rkmay tavakkal kiluvchi insonlarni ragbatlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «axmokona goyalar» akl bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan xolatlar xam bo'lishi mumkin. O'kituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy xolati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Talabalarni tavakkaldan xoli bo'lgan, ya'ni goyalar kadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yukori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muxitda o'ylash lozimligini ularda ishonch xosil kilish zarur.

Kadrlash. Tankidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini kadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z goyalari, tasavvurlarining o'kituvchi tomonidan kadrlanayotganini tushungan chogdagina chukur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob kaytaradilar.

Talabalar o'z fikrlash jarayonini kadrlashni namoyish kilishga xarakat kiladilar, unga va uning okibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Boshkalar fikrlarini xurmat kilish. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tankidiy taxlili natijalari kimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'kituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki kayta ishlashni talab kilganda tayyor koliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar goyalarini mexanik tarzda kayta ishlab chikish eng muxim va kimmatli ekanligiga ishonch xosil kilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taallukli bo'lgan goya va tasavvurlar kimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarning o'zlari xam o'z fikrlarining kimmatbaxo ekanligiga ishonch xosil kila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muxokama kilish jarayonida o'ta muxim, shuningdek, katta xissa bo'lib xisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr almashuv. Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtokchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan kobiliyatlarini boshkalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan dikkat bilan tinglash, o'zining karashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshka so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi xam talab etiladi. Bunga javoban talabalar

boshkalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara okibati o'larok talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan goyalarni taxlil qilish va uni aniklashga yanada kobiliyati orta boradi xamda ularni o'z bilimlari va xayotiy tajribalarida yaratgan goyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch xosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoklar va o'kituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

Tankidiy fikrlashni ta'minlovchi savollar. Tankidiy fikrlash jarayonida axborotni taxlil qilish va izoxlash, goyalarini taxlil qilish, o'rganilayotgan xikoyalarni o'z taxminiy rejalari bilan kayta tuzib chikishga karatilgan savollardan foydalaniladi. Ko'llanmada taxlil kilinayotgan bu masalalar Senders (1969) ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli satxdagi kiyinchilikda fikrlashning turli ko'rinishlarini ta'minalashda vosita bo'lib xizmat kiladi. Eslab kolishga xizmat kiladigan savollar yoki formal satxdagi savollar eng kuyi satxdagi savollarga taalluklidir. Baxolash yoki xukm chikarish beriladigan savollar fikrlashni ta'minlaydigan ikkinchi satxdagi savollar sifatida karaladi.

Formal satx savollari faktologik axborotlar olish maksadida beriladi. Ular fakat mexanik eslashni va talabalarda yaxshi javob berish uchun kiska muddatda ma'lum predmetlar bo'yicha bilim kismlari (fragment)ni talab kiladi.

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko'chirish talabalardan uni ko'chim (transformatsiya) kilishni talab kiladi. Ko'chirish savollari talabalarga o'rganayotgan, tavsiflagan va ko'rgan vaziyatlari, saxnalari va vokealarini o'zlari namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko'chirish savollari talabalarni axborotlarni kayta ishlash yoki boshka shakllarga ko'chim kilishga ilxomlantiradi. Talabalarga sezish, ko'rish (sensor) tajribasini yaratish,

shundan so'ng esa boshkalarga o'z ko'rganlarini etkazish uchun uni e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

Talabalarga goyalar, faktlar, kaydlar va kadriyatlar orasidagi boglanishlarni ochish uchun izoxlashga karatilgan savollar beriladi. Sendrs izoxlashga karatilgan savollarga nisbatan yukori darajadagi fikrlashni talab kiladigan tayanch savollar deb karaydi, boshkalari esa (Vogn va Estes) tushunishning o'zigina izoxlashdir, deb xisoblaydilar.

Tatbik kilishga karatilgan savollar o'kish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantik muammolarini echish va chukur o'rganish uchun imkoniyat beradi.

Taxlil etishga karatilgan savollar talabalardan u yoki bu vokeaning axamiyati etarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'kmi degan savolga javob berishga undaydi.

Sintez kilishga karatilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni xal kilishga da'vat etadi. Sintez savollari talabalarga o'zining barcha bilim va tajribalarini muammoning ijodiy echilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari mukobil stsenariylar yaratishni xam takozo kilishi mumkin.

Baxolash savollari yaxshi va yomon, adolatli va adolatsizlik to'grisida xukm chikarish uchun beriladi.

Baxolash savollari talabalar, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baxolay olishi, ularni kadrlay olishi uchun beriladi.

Tankidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok kilishning 4 tipini farklaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'grisida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izoxli idrok etish. Bu Blum izoxlari darajasiga aynandir. Idrokning bu tipida talaba goya va xodisalarning o'zaro alokalarini yoritadi, uning moxiyatini muxokama kiladi, fanning turli soxalariga oid goya va axborotlarni xatto tashki jixatdan boglik xodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan boglab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tankidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga ko'yib, uni taxlil qilish, uning nisbiy kimmatini, to'griligini, foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va kabul qilishi doirasida uning axamiyatini baxolashdir.

Shunday kilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muxim vazifalarni echish imkoniyatini beradi:

- talabalarga maksadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- talabalarning o'zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini ko'llab-kuvvatlaydi;
- xar kandy fikrlarga bo'lgan xurmat kayfiyatini yaratadi;
- talabalarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;
- talabalar kadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;
- talabalarning tankidiy jalb kilinishiga bir kator umidlar bildiriladi.

Klasterlarga bo'lish. Bu pedagogik strategiya bo'lib, talabalarning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bemalol o'ylashga yordam beradi. U fakat goyalar orasidagi boglanishlarni fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniklab olishni talab kiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan ziya boglanadi.

Klasterlarga bo'lishdan axborotlarni chorlash boskichida xam, fikrlash boskichida xam foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o'rganilguncha fikrlash faoliyatini ta'minlashda foydalanilishi mumkin. Klasterlarga bo'lish talabalarning tasavvurlarini yangi boglanishlari yoki ularning grafik ifodalari

ko'rinishlarini ta'minlovchi sifatida xam o'tganliklarini yakunlash vositasi sifatida ko'llanilishi mumkin. Bu o'z bilimlariga, muayyan mavzu to'grisida tasavvuriga va uni tushunishga yo'l ochadigan nazardagi strategiyadir.

Klasterlarga bo'lish kuyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Xushingizga kelgan barcha fikrlarni yozib olish. Bu fikrlarni muxokama kilmang, shunchaki yozib olavering.

2. Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshka omillarga xam parvo kilmang.

3. Sizga berilgan vakt nixoyasiga etmagunga kadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelishi to'xtab kolsa, toki yangi fikrlar kelgunga kadar kogoza nimalarnidir chizib o'tiring.

4. Imkoni boricha, boglanishi mumkin bo'lgan goyalarni tizib chiking, goyalarining okimi sifati va ular orasidagi alokalarni chegaralab ko'ymang.

Klasterlarga bo'lish, Stil va Stil (1991)ning ta'biricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda xam guruxda xam ko'llash mumkin. Gurux faoliyatida u gurux goyalarining tirgovichi sifatida xizmat kiladi. Bu esa talabalarni xar bir amalda bo'lgan boglanishlarga, alokalarga yakinlashtiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda, pedagog ixtisosligini tanlagan xar bir inson kimlarni o'qitayotgan va tarbiyalayotganligi uchun o'ziga javobgarlikni oladi. U uzining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga pedagog, o'ituvchi, tarbiyachi, muallim bulish xukukiga ega bulishi uchun juda kuplab majburiyatlarni olishi zarur. Muallimlik kasbining sharafliligi, nafakat, uning o'ituvchi, turli bilimlarni urgatuvchi va moxir tarbiyachi bulganligi uchungina emas, balki uning uzi tanlagan kasb-xunar yunalishidagi barcha mutaxassisliklar buyicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bulgan fundamental fanlarni xamda ukitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini alo darajada egallagan bulishi shart.

Shu bilan birga xakikiy muallim turli darajadagi bilimga, xoxish va irodaga xamda tarbiyaga ega bulgan talabalarni ajoyib sanatkori kabi uziga ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega bulgan muallim uziga kuyidagi majburiyatlarni olishi kerak. Birinchidan, bulajak o'ituvchi, tarbiyachi bulajak pedagoglik faoliyati uchun uzining imkoniyatlarini baxolashi, uzining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida kandy kasbiy zaruriy sifatlarni shakllantirish kerakligini va kandyalarini mustakil pedagogik jarayonda shakllantirishi kerak? Ikkinchidan, bulajak pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, kabul kila olishi, kuz oldiga keltirishi, etibor) ni xulk-atvor madaniyati va shu jumladan pedagogikaviy alokasini egallagan bulishi shart. Uchinchidan, pedagog uchun majburiy dastlabki shart-sharoit muvafakkiyatli faoliyat asosi bulgan ukuvchini uzining tengkuri deb karashi va uning xulk-atvori uzaro alokasidagi konun-koidalarni bilishi kerak.

Demak, pedagog talabadagi insoniylik va shaxslikni xurmat kilish, uzingizga kandy munosabatda bulishlarini xoxlasangiz ularga xam shunday munosabatda buling;

1. Doimo uzingizni rivojlanish va usishga, ukishga undang, zeroki, kimki uzi ukimasa, boshkalarda ukishga ishtiyok tugdira olmaydi.

2. Talabalarga bilimni shunday beringki, toki, ular uzlashtirishni xoxlasin va uzlashtirsin.

3. Ukitishning maksadi fakat talabaga malum bilimlarni berishdan iborat bulmay, ularda mustakil va o'ituvchi yordamisiz yukori chukkilarni egallash malakalarini yaratishdan iborat.

A d a b i y o t l a r

1. İ.A .Karimov Yuksak manaviyat- engilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
2. İ.A. Karimov Yuksak malakali kadrlar – tara33iyot manbai T. %zbekiston, 1996
3. U.Tolipov, M.Usmonboeva Pedagogik texnologiya Toshkent, Fan. 2005
4. B.Ziyomuxamedov İlgor pedagogik texnologiya Toshkent, 2001.
5. N.Saidaxmadov, M.Ochilov Yangi pedagogik texnologiya moxiyati va zamonaviy loyixasi. Toshkent 1999.
6. Bespalko V.P.Pedagogika i progressivnıe texnologii obucheniya – M.1999.
7. Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogiki -Riga, 1997.
8. Kraevskiy V.V. Lerner İ.Ya. Protsess obuccheniya i ego zakonomernosti. M. Pedagogika 1982 g.
9. Shadrikov V.D. Psixologiya deyatel`nosti i sposobnosti cheloveka. -M.1996
10. Selevko G.K. Sovremennıe obrazovatel`nie texnologii. -M., 2000
- 11.Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat T 2006 y.
12. M.Ochilov Yangi peagogik texnologiyalar T. 2006.
13. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboeva F.A. Oliy ukuv yurtlarida ukitishning zamonaviy usullari. Ukuv-uslubiy kulanma. T., 2002.
14. Podlasiy İ.P. Pedagogika M.,Vlados, 2002.
15. Xaydarov B, Nuriddinov B, Rasulov A. va boshkalar. Talim samaradorligini oshirish yullari. Treninglar uchun kulanma. T., UMKXTRI, 2002.
16. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshkalar. Baxolash metodlari. Ukuv metodik kulanma. T., 2003.